ISSN: 2181-4341, IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 9.145, SJIF – 5,431

Norova Hilola Ismoilovna

Osiyo xalqaro universiteti o‘qitivchisi

Achilova Mohigul Ollayor qizi

Osiyo xalqaro universiteti Filologiya va tillarni o‘qitish

(o‘zbek tili)1-bosqich talabasi

Tel:(50)1075232

E-mail:mohigulachilova26@gmail.com

NAVOIY ETNOGRAFIZMLARINING LINGVOMADANIY TADQIQI

Annotatsiya

Maqolada Alisher Navoiyning tadqiqotlari, yozgan asarlari batafsil yoritib berilgan. Alisher Navoiyning adabiyotga o‘z hissasi va lingvomadaniy tadqiqi ko’rib chiqilgan. Shu bilan birga uning g‘azallari,san’atning gapdagi o‘rni, “Xamsa”ga ham katta e’tibor qaratilgan. Alisher Navoiy butun umrini turkiy til mavqeyini ko‘tarish, turkiy adabiyot imkoniyatlarini, madaniyatini dunyoga tan oldirish, jamiyatda haqiqat va adolat mezonlarini qaror toptirishga bag‘ishlangan bobokalonimizdir.

Kalit so’zlar

Lingvomadaniy ,asar, tadqiq, xamsa, san’at, g‘aza, til, madaniyat, turkiy til, haqiqat, adolat.

Kirish: Prezdentimiz Shavkat Mirziyoyev: “Dunyodagi qadimiy va boy tillardan biri bo’lgan o‘zbek tili xalqimiz uchun milliy o‘zligimiz va mustaqil davlatchiligimiz timsoli, bebaho ma’naviy boylik, buyuk qadriyatdir. Kimda-kim o‘zbek tilining bor latofatini, jozibasi va ta’sir kuchini, cheksiz imkoniyatlarini his qilmoqchi bo‘lsa, munis onalarimizning allalarini, ming yillik dostonlarimizni, o‘lmas maqolalarimizni eshitsin, baxshi va hofizlarimizning sehrli qo‘shiqlariga quloq solsin”, - deb aytadi. O’zbek milliy tilimizning boyligi, sehrli va jozibaliligi to‘g‘risidagi fikrlarimizni buyuk bobokalonimiz, o‘zbek tili va o‘zbek adabiy tilining asoschisi buyuk Alisher Navoiy faoliyati, ijodi va nomi bilan bog‘liq ma’lumotlar orqali boyitishga xizmat qiladi. Alisher Navoiy eski o‘zbek tilining keng imkoniyatlaridan ijodiy farqlangan holda bu tilni ilmiy jihatdan chuqur tadqiq qiluvchi, mukammal o‘rganuvchi “Muhokamat-ul lug‘atayn” nomli yirik asarini dunyoga tortiq qilganligi diqqatga sazavordir .

Natija va muhokamalar: Alisher Navoiy tilning kuchi va qudrati to‘g‘risida fikr yuritib, “Til insonni hayvondan ajratuvchi “gavhari sharif “dir “, - deydi.

So‘zdurki, nishon berur o‘likka jondin,

So‘zdurki, berur xabar jonga jonondin,

Insonni so‘z ayladi judo hayvondin,

Bilki, gavhari sharifroq yo‘q andin.

Alisher Navoiyning lirik me’rosi ulkan hisoblanib, 1483-1485-yillarda o‘z ichiga olgan 5 dostonni olgan “Xamsa” asarini yaratgan: “Hayrat-ul abror” (Yaxshi kishilarning hayratlanishi), “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Sabbayi sayyor” (Yetti sayyora), “Saddi Iskandariy” (Iskandar devori). Navoiyning “Xamsa”si mazkur janrda yaratilgan turkey tildagi birinchi asari hisoblanadi. U turkiy tilda ham bu kabi yirik ko’lamdagi asar yaratishi mumkinligini isbotlab berdi. Haqiqatdan ham, Navoiy chig‘atoy tilida (eski o‘zbek tilida) ham fors-tojik adabiyoti bilan bir darajada turuvchi asar yaratish mumkinligini isbotlashga harakat qilgan. Alisher Navoiy butun hayoti davomida adabiy asarlarni siyosat bilan birlashtirgan. Yuqori mansabga ega shaxs bo’la turib, u mamlakat hayotining ijtimoiy-iqtisodiy, takomillashishiga, ma’naviyatning yo‘qolmasligiga katta hissa qo‘shgan ilm-fan, san’at rivojiga asos solgan, tinchlik va totuvlik doimo hukm surishiga harakat qilgan. Navoiy forsiy tilida yozilgan o‘z she’rlarini “Devoni Foniy”da jamlagan.

“Majolisun-nafois”tazkirasida turk tilidagi yozilgan dastlabki tazkira bo‘lib , unda shoir 8majlis doirasida 459 shoir va adib haqida ma’lumot beradi.Yana bir “Muhokamatul-lug’atayn”asarida o‘z zamonidagi turkey lahjalar ,ziyolilar nutqi,badiiy va ilmiy asarlarning leksik-grammatik xususiyatlarini forsiy til xususiyatlari bilan qiyoslashga bag‘ishlangan.

Xush so‘zga kim o‘lsa mast-u behush,

Sharbat aro zahrni qilur no‘sh.

Bu baytdda aytmoqchiki, so‘zi yolg‘onni zohir bo‘lg‘och uyolg‘on. Yolg‘onni chin deb aytquvchi suxanvar – kumushni oltin bila ro‘kash qiluvchi zargar. Yolg‘on afsonalarda uyqu keltiruvchi, yolg‘onchi uyquda takallum surguvchi. Yolg‘on aytuvchi g‘aflatdadur. So‘zning asnofi bag‘oyat cho‘qdur. Yolg‘ondin yomonroq sinfi yo‘qdir. Ya’ni bu ham so‘zlashuv usulining bir lingvomadaniyatidir.

Kim so‘zni terib aytguvchi og‘zig‘a bergay,

Molik ani do‘zax o‘tining dudig‘a tergay.

Bu bayt inson og‘ziga kelganini gapirish bu ahmoqlikdir, degan fikrni ilgari suradi. Og‘ziga kelganini gapirgan inson do‘zax azobini chekishi muqarrar. “Yetti o‘lchab bir kes” deganlardek, og‘zimizdan chiqayotgan har bir fikrni o‘ylab, anglab aytishimiz joiz.

Xulosa. Mamlakatimizda “Tilga e’tibor – ma’naviyatga e’tibor” bo‘lgani singari Alisher Navoiy asarlarida ham ma’naviyatning ustuvor ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Shu boisdan ona tilimizni asrab-avaylash, undan amaliy foydalanish samaradorligini oshirish bilan birga, o‘zbek tilining zamonaviy axborot kommunikatsiya tizimida keng qo‘llanishiga erishish kechiktirib bo‘lmaydigan dolzarb masalaga aylandi. Lingvomadaniyat istiqbolli ilmiy yo‘nalish sifatida o‘zbek tilini milliy madaniyatini yaratish, zamonaviy ilmiy tamoyillar asosida tadqiq etish fanimizning oldida turgan asosiy masaladir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub”asari.Toshkent.1983.

ISSN: 2181-4341, IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 9.145, SJIF – 5,431

2. Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr”asari.Toshkent.1982.
3. Alisher Navoiyning “G‘azallar va baytlar to‘plami”
4. Alisher Navoiyning “Devoni Foniy”to’plami.
5. Islom Karimov “Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch”.Toshkent.2008